# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2024

№ 5




08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o'rinbosari:**
**Karimov Norboy G'aniyevich**

*Elektron nashr. 376 sahifa.*
*E'lon qilishga 2024-yil 30-mayda ruxsat etildi.*

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**



**Tahrir hay'ati:**

**Salimov Oqil Umrzoqovich,** O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
**Axmedov Sayfullo Normatovich** i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** i.f.d., TMI professori
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** i.f.n., TDIU professori
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** f.f.d., TDIU professori
**Axmedov Ikrom Akramovich,** i.f.d. TDIU professori
**Po'latov Baxtiyor Alimovich,** t.f.d., profesor
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich,** i.f.d., TDIU professori
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** i.f.d., TDIU professori
**Musyeva Shoira Azimovna,** SamDu IS instituti professori
**Axmedov Javohir Jamolovich,** i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li,** t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi
**Xalikov Suyun Ravshanovich,** i. f. n., TDAU dotsenti
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Rustamov Ilhomiddin,** f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
**Fayziyev Oybek Raximovich,** i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
**Sevil Piriyeva Karaman,** PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li,** TDIU mustaqil tadqiqotchisi
**Utayev Uktam Choriyevich,** O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
**Ochilov Farxod,** O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** TDIU katta o'qituvchisi

**Ekspertlar kengashi:**

**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** i.f.d, TDIU dotsenti
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** i.f.f.d, TDIU dotsenti
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** i.f.d., TMI dotsenti
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** TDIU mustaqil tadqiqotchisi



Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

# MUNDARIJA

Uy-joy qurilishi madaniyati, uning oʻziga xos xususiyatlari va tamoyillari ........ 10
**Davletov Islambek Xalikovich, Zikrullayev Valixon Gʻaybulla oʻgʻli**

Hududlar investitsiya muhitini oshirish muammolari ........ 16
**Akbarov Bekmurod Miryakubovich**

Qoraqalpogʻiston Respublikasi ellikqalʼa tumanida turizm klasterini joriy qilish mexanizmi ........ 22
**Norchayev Asatullo Norboʻtayevich**

Small Business and Private Entrepreneurship is the Priority Direction of Our Country's Economy ........ 28
**Tulagan Tukhtaraliev, Gʻaniev Muhammadjon Xalilovich**

Resurs soliqlarini soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish ........ 31
**Tursunova Zulayxo Abdujobir qizi**

Oʻzbekistonda muqobil energiya manbalaridan foydalanish elektrotexnika sanoati rivojlanishining istiqboli sifatida ........ 34
**Uraimjonov Azizbek Raxmonjon oʻgʻli**

Oliy taʼlimning raqobatbardoshligini taʼminlashda taʼlim sifatining mohiyati va asosiy tamoyillari (Oʻzbekiston misolida) ........ 40
**Egamov Sevinchbek Maxsud oʻgʻli**

Financial Mechanisms of Supporting Textile Products Export ........ 46
**Gaybullayeva Gulbaxor Maxmudovna, Yakubova Ugiloy Mamasoliyevna**

Oʻzbekiston Respublikasida hududlarni mutanosib barqaror rivojlantirish masalalari va yechimlari ........ 49
**Hojiyev Talʼat Toshpoʻlatovich**

Raqamli iqtisodiyot sharoitida ayollar biznesini shakllantirish yoʻllari ........ 54
**Ibodullayeva Malohat Sirojiddin qizi**

Davlatning iqtisodiy xavfsizligini taʼminlashda qishloq xoʻjaligini rivojlantirishning xorijiy tajribasi ........ 57
**Bekmirzayev Mirzoxid Adashaliyevich**

Turizm sohasi rivojlanishining istiqbollari ........ 61
**Ergashev Rahmatulla Xidirovich, Jabborova Zuhra Abdigʻani qizi**

Jahonda kabel bozorini rivojlantirish xususiyatlari va tendensiyalari ........ 68
**Uralov Olimjon Mahammadjonovich**

Namangan viloyatida yoshlarning iqtisodiy faolligi koʻrsatkichlari dinamikasini tahlil qilish ........ 72
**Mirzatov Baxtiyor Toxirovich**

Turizm sohasiga malakali kadrlar tayyorlashdagi muammolar va ularning yechimlari borasida tavsiyalar ........ 77
**A. I. Raxmatov**

Трансформация внешнеторговых связей Республики Узбекистана ........ 83
**Ахмедова (Жабборова) Нилуфар Икболжон кизи**

Korxonalarda investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari va usullarining tahlili ........ 88
**Kuziyeva Nargiza Ramazanovna, Xusanov Faxriddin Jamoliddin oʻgʻli**

Turizmning mohiyati xususida nazariy yondoshuvlar va ularning tahlili ........ 94
**R. I. Pardayev**

Katta hajmga ega boʻlgan maxsus qurtxonalarda boqilayotgan ipak qurtlariga harorat va namlikni taʼsiri ........ 101
**Raxmanova Xuriniso Egamovna**

Mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirishda mahalliy soliqlar va soliqdan tashqari tushumlarning ahamiyati ........ 104
**Rajjaboyeva Dildora Zakirovna**

Banklarda stress-test asosida ESG-risklarni baholash ........ 110
**Nilufar Sharipova**

Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda banklarda ekologik va ijtimoiy risklarni baholash va boshqarish tizimini joriy etishning ahamiyati ........ 114
**Karimov Shamsiddin Akram oʻgʻli**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Qimmatli qog'ozlarni qiymatini baholash usullari va modellari ..... 122
**Botirxo'ja Aziza Faxmuddin qizi**

Sanoat ishlab chiqarishda diversifikatsiyaning nazariy asoslari ..... 127
**Davronbek Sharibjonovich Raximov**

Mamlakatimizda innovatsiyalarni moliyalashtirishning amaldagi holati tahlili ..... 133
**Aminov Farrux Farxadovich**

Raqamli iqtisodiyotda moliyaviy hisobot tahlilini takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari ..... 138
**G. J. Jumayeva**

Qurilish sohasida logistika tizimlariga zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlanganlarning amaliy jihatlari ..... 141
**Mirsodiqov Abdulla Tursunaliyevich**

Raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitaliini boshqarishdagi muammolar ..... 146
**Nematova Shaxlo Egamberdiyevna**

Aholi daromodlari va omonatlarini shakllantirishning nazariy asoslari ..... 149
**Xakimov Zohid Norbo'tayevich**

Tasvirlarga raqamli ishlov berish jarayonini intellektuallashtirish algoritmini yaratish ..... 158
**Zoirov O'lmas Erkin o'g'li**

Mintaqa iqtisodiyotida investitsiya faoliyatini moliyalashtirish samaradorligini baholash ..... 164
**Chilmatova Dilnoza Abdurahimovna**

Возможности внедрения и развития исламских банковских продуктов в рынок Узбекистана ..... 168
**Иноятова Камола Фуркатовна**

Davlat xizmatchisi faoliyatida ijtimoiy javobgarlikning o'rni ..... 172
**X. X. Ikramov**

Korporativ boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatlari ..... 176
**Abdug'aniyev Muhammadamin Abdug'affor o'g'li**

Hududiy kambag'allik chegaralarini aniqlashning ahamiyati (Qashqadaryo viloyati misolida) ..... 182
**Hamdamov Shahzod Ilhom o'g'li, Alisher Yunusaliyevich Safarov**

Kichik biznesga mahalliy investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanishda franshizaning roli ..... 189
**Rabimqulov Sherzod Murtozayevich**

Tijorat banklarida marketing strategiyalaridan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari ..... 193
**Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich**

Davlat sherikchilik asosida maktab va maktabgacha ta'lim moliyashtirishligini o'ziga xos xususiyatligi ..... 198
**Boltaboev Murodbek Aybekovich**

Moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish davr talabi ..... 203
**X. I. Boyev**

Banklarda chakana kreditlash turlari va ularni raqamli transformatsiya qilishning zarurligi ..... 207
**Axmedova Dilrabo Kurbondurdi qizi**

Rasmiy ish bilan bandlik – aholining munosib turmush darajasini ta'minlash demak ..... 216
**Farhod Bagibekovich Xalimbetov**

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i uchun qo'llaniladigan soliq imtiyozlarining amaldagi holati va tahlili ..... 220
**Valiyeva Sayyora Xushbaqovna**

Автомобильная промышленности развитых стран: становление, развитие, пути совершенствования ..... 227
**Назарова Раъно Рустамовна, Абдухамидова Мафтуна Турсуналт кизи**

Влияние цифровизации на внешнеэкономическую деятельность ..... 232
**Шермаматова Ирода Ойбековна, Тиллаев Хуршиджон Сулаймон ўғли**

ИИ в банковском бизнесе: ключ к конкурентной привлекательности ..... 238
**Фаттахова Муниса Абдухамитовна**

Меры по привлечению прямых иностранных инвестиций в национальные экономики ..... 243
**Ахмедова (Жабборова) Нилуфар Икболжон кизи**

Особенности банковского кредитования и факторы препятствующие финансово-кредитной поддержке субъектов сферы туристических услуг ..... 248
**Розоков Мухаммадазиз Мансурович**

Factoring Operations in Banks ..... 253
**Boykabilova Iroda, Davronova Dilnoza Damirovna**

Moliyaviy sektordagi aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ strategiyasini shakllantirishda risklarni bartaraf etish ..... 257
**Jaxongirov Rustam Jaxongirovich, Xo‘jamurodov Asqarjon Jalolovich**

O‘zbekistonning jozibador investitsiya muhitini yaratishda huquqiy asoslarni yanada takomillashtirishning ilmiy va amaliy zaruriyati ..... 264
**Oybek Elmuratov**

Qurilish materiallarini ishlab chiqarish korxonalarning boshqarish tizimini takomillashtirish ..... 268
**Uzakova Umida Ruzievna**

Tashkent Economy – Locomotive of the Country’s Economy ..... 274
**Akramova Aziza Abduvohidovna, Maqsudov Bunyod Abdusamadovich**

O‘zbekiston Respublikasida ishbilarmonlik turizmining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomilashtirish yo‘llari ..... 278
**Musayeva Shoira Azimovna, Usmonova Dilfuza Ilhomovna**

Mintaqalar iqtisodiyotining barqaror o‘sishini ta’minlashda investitsiyalardan samarali foydalanish mezonlari va ularni hisoblash usullari ..... 284
**Norqobilov Nusrat Norsaitovich**

Marketing strategiyasi: raqobatchilik sharoitida tadbirkorlik faoliyatini yuritishning rivojlantirilishi ..... 288
**Kutbitdinova Moxigul Inoyatovna, Matrizayeva Dilaram Yusubayevna**

Mahalliy budjetlar mablag‘laridan samarali foydalanishni ta’minlashning eng asosiy istiqbolli yo‘nalishi ..... 295
**S. Y. Ismoilova**

Atrof-muhitga zararsiz, tabiiy tarkibli korroziya ingibitorlari turlarini tahlil qilish ..... 300
**Qurbonova Firuza Solexovna**

Oliy ta’lim muassasalarida xarajatlar smetalari ijrosi hisobini yuritish tartibi ..... 306
**AbdulAziz Norqo‘chqorov Ziyadullayevich**

Tijorat banklarining investitsion faoliyati samaradorligi va uni rivojlantirish yo‘llari ..... 312
**Olimova Nodira Xamrakulovna**

Baholangan majburiyatlar hisobini takomillashtirish ..... 324
**Ochilov Farxodjon Shavkatjon o‘g‘li**

Qurilish-pudrat tashkilotlarida auditorlik tekshiruvida faoliyat uzluksizligini baholash ..... 331
**Tulovov Erkinjon To‘lqin o‘g‘li**

Основные направления развития инвестиционной деятельности предприятий ..... 335
**Махкамова Надира Саидмуратовна**

Milliy statistika axborot tizimlarining funksional jihatlari va o‘ziga xos xususiyatlarining tahlili ..... 340
**Otajonova Gulhayo Maqsud qizi**

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini boshqarish axborot tizimini modellashtirish ..... 345
**Xudoyorov Laziz Niyozovich, Ergashova Nargiza Boboxonovna**

Mamlakatimzda aksiz to‘lanadigan tovarlarni soliqqa tortish usullari ..... 351
**Alimardonov Muxammadi Ibragimovich, Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich**

Iqtisodiy rivojlanish sharoitida investitsiya loyihalarini jalb qilingan mablag‘lar orqali moliyalashtirishning zarurligi ..... 357
**Amonova Dilafro‘z O‘tkurovna**

To‘lov tashkilotlarini tashkil etishda xatarlarni boshqarish ..... 362
**Axmedov Miraziz Alisherovich**

Korxonada inson kapitalini rivojlantirish tizimi va konsepsiyasini takomillashtirish imkoniyatlari ..... 367
**Hamrokulov M. O.**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

# QURILISH-PUDRAT TASHKILOTLARIDA AUDITORLIK TEKSHIRUVIDA FAOLIYAT UZLUKSIZLIGINI BAHOLASH



**Tulovov Erkinjon To'lqin o'g'li**
PhD, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada qurilish-pudrat tashkilotlarida auditorlik tekshiruvida faoliyat uzluksizligini takomillashtirishning ahamiyati tadqiq qilingan. Tadqiqotlar natijasida qurilish-pudrat tashkilotlarida auditorlik tekshiruvida faoliyat uzluksizligini muammolari aniqlangan va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Qurilish, qurilish-pudrat tashkiloti, buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot, firibgarlik, faoliyat uzluksizligi.

Abstract: The article examines the importance of improving the continuity of operations in the audit of construction and contracting organizations. As a result of the research, the problems of business continuity were identified during the audit of the construction and contracting organizations, and suggestions for their elimination were developed.

Key words: Construction, construction contracting organization, accounting, financial reporting, fraud, business continuity.

Аннотация: В статье рассматривается важность повышения непрерывности деятельности при аудите строительных и подрядных организаций. В результате исследования выявлены проблемы непрерывности бизнеса при проверке строительных и подрядных организаций и разработаны предложения по их устранению.

Ключевые слова: Строительство, строительно-подрядная организация, бухгалтерский учет, финансовая отчетность, мошенничество, непрерывность бизнеса.

## KIRISH

Jahonda qurilish-pudrat tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va auditini xalqaro standartlar asosida tashkil etishga oid ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur tadqiqotlarda qurilish-pudrat tashkilotlarida xarajatlarni tasniflash, hisob siyosatini retrospektiv qo'llash, segmentar hisobotlarni tuzish, moliyaviy natijalar hisobini yuritishda xaridorlar bilan shartnomalar bo'yicha tushumni tan olish tartibini takomillashtirish, aktivlar va majburiyatlarni baholashda haqqoniy qiymatdan foydalanish, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy etish, baholangan va shartli majburiyatlar hisobini mukammallashtirish, qurilish-pudrat tashkilotlari faoliyati auditida tahliliy amallarni qo'llash, faoliyat uzluksizligi va hisobot sanasidan keyingi hodisalarni baholash, firibgarlik bilan bog'liq muhim buzib ko'rsatish holatlari bo'yicha risklarni baholash, modifikatsiyalangan auditorlik xulosalarini tuzish kabi yo'nalishlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda moliyaviy hisobotning shakllari va ularning tarkibiy qismlari qat'iy o'rnatilgan. Shuningdek, buxgalteriya hisobining milliy standartlarida moliyaviy hisobot shakllarida ochib berilmagan holatlar izohlarda yoritib berilishi belgilangan. Biroq xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan faoliyatga oid muhim jihatlar moliyaviy hisobotning izohlarida ochib berilmaydi. Mazkur holatlar auditorlik tekshiruvlarida faoliyat uzluksizligini ta'minlash nuqtayi nazaridan ochib berilishi zarur.

## ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijiy va mahalliy iqtisodchilarning ilmiy ishlarida faoliyat uzluksizligini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

"Hisob siyosati va moliyaviy hisobot" nomli 1-son BHMSga binoan "moliyaviy hisobotni uzluksizlik prinsipi asosida tayyorlash xo'jalik yurituvchi subyekt doimiy harakat qilishini va aniq bo'lmagan uzoq muddat davomida o'z faoliyatini davom ettirishini, ya'ni xo'jalik yurituvchi subyektning o'zini tugatishiga yoki o'z faoliyati sohasini qisqartirishga ehtiyoji yo'qligini bildiradi" [1].

TARAQQIYOT PROGRESS ПРОГРЕСС

Indoneziyalik iqtisodchi olimlar fikricha, “faoliyat uzluksizligi bo‘yicha auditorlik xulosasini tuzishda auditor 3 ta taxmindan foydalanishi zarur. Ularga moliyaviy ko‘rsatkichlar bo‘yicha taxminlar, operatsion ko‘rsatkichlar bo‘yicha taxminlar va boshqa taxminlar kiradi” [2].

Adela Sokol fikricha, “faoliyatning uzluksizligi moliyaviy hisobotni tayyorlashda buxgalteriya hisobining muhim prinsipi hisoblanadi. Shuningdek faoliyat uzluksizligiga baho berish auditorning javobgarlik darajasini belgilaydi va auditorlik tekshiruvi sifatini ta’minlashning muhim sharti hisoblanadi” [3].

Boshqa bir guruh iqtisodchi olimlar “faoliyatning uzluksizligi moliyaviy hisobotning asosiy tushunchalaridan biridir. Kompaniya rahbariyati faoliyat uzluksizligi prinsipidan foydalangan holda moliyaviy hisobotni tuzishi lozim. Auditorlik tekshiruvlarida faoliyat uzluksizligi taxminidan foydalanish moliyaviy hisobotdagi axborotlarni ishonchli darajada oshkor etilishini ta’minlaydi” [4], degan xulosaga kelishgan.

F.Sh.Ochilov tomonidan olib borilgan tadqiqot ishida “auditning xalqaro standartlari talablari asosida majburiyatlar auditida tahliliy amallarni qo‘llagan holda xato va qoidabuzarliklar tasnifining ishlab chiqilishi xo‘jalik yurituvchi subyektlarda firibgarlik holatlarini oldini olishga, ularning moliyaviy barqarorligi va faoliyat uzluksizligi ta’minlanishiga, auditorlik tekshiruvlari uchun sarflanadigan mehnat va vaqt xarajatlarini qisqartirishga xizmat qiladi” [5], degan xulosaga kelingan.

A.Z.Avlokulov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda uzluksizlik buxgalteriya hisobining muhim prinsiplaridan biri ekanligini ta’kidlanib, quyidagi xulosalar shakllantirilgan: “moliyaviy natijalar hisobining to‘g‘ri yuritilishi va moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotning ishonchliligi ko‘p jihatdan hisob prinsiplarining o‘z vaqtida, to‘g‘ri hamda aniq qo‘llanilishiga bog‘liq. Avvalo, faoliyatning uzluksizligi, hisobot davridagi daromadlar va xarajatlarning bir-biriga muvofiqligi, olingan daromadlarning sarflangan xarajatlarga mos kelishi hamda ehtiyotkorlik prinsiplari moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi buxgalteriya hisobi axborotlarining ishonchliligini ta’minlashga xizmat qiladi” [6].

B.N.Sayfutdinov ta’kidlashicha “faoliyat uzluksizligini baholash auditorning kasbiy xulosasining predmeti bo‘lib, ma’lum bir vaqtda moliyaviy hisobotni tuzish sanasida aniqlanmasligi mumkin bo‘lgan hodisalar to‘g‘risida fikrni shakllantirish bilan bog‘liq. Xo‘jalik yurituvchi subyektning keyingi faoliyati istiqbollarini oshkor qilish auditorlik riskining sezilarli darajada oshishiga bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli, faoliyatga ta’sir ko‘rsatadigan va uzluksizlikka bog‘liq bo‘lgan turli xil risklarni aniqlash va baholash zarurati auditning barcha bosqichlarida yuzaga keladi hamda auditorning e’tiborini kuchaytirishni talab qiladi” [7].

## TAHLIL VA NATIJALAR

Yuqorida keltirib o‘tilgan shartlar maxsus bilim, tajriba va malaka sertifikatiga ega auditorlar xizmatiga ehtiyojning yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan.

O‘zbekiston Respublikasining “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi qonuniga binoan, “ishonchlilik deganda, moliyaviy hisobot ma’lumotlarining aniqlilik darajasi tushunilib, u ushbu hisobot asosida xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy ahvoli va moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalari to‘g‘risida xolis xulosalar chiqarish imkonini beradi”[1].

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya xizmati va ichki nazorat tizimining samarali tashkil etilmaganligi nazorat riskining oshishiga olib keladi. Buxgalteriya xizmatida yuqori malakaga ega xodimlarning yetarli emasligi, xizmat vazifalarining takrorlanishi bunga misol bo‘la oladi. Bundan tashqari, ichki nazorat tizimining xato va firibgarlik holatlarini aniqlay olmasligi ham auditorlik riskini oshiradi.

Firibgarlik holatlari bugungi kunda jahon mamlakatlarida keng tarqalgan. Ko‘plab kompaniyalarda firibgarlik natijasida katta miqdordagi yo‘qotishlar yuzaga kelmoqda. Ayniqsa, aktivlarni noqonuniy egallash, korrupsiya va kiberjinoyat kabi firibgarlik holatlari soni kun sayin oshmoqda.

Auditorlik xulosasi va hisobotini tuzishda quyidagilar tekshiriladi (1-rasm): Auditorlik tekshiruvi yakunida ta’sischilarning umumiy yig‘ilishida qabul qilingan qarorlarning ijrosi qay darajada bajarilganligiga e’tibor qaratiladi. Xususan, ustav kapitali hajmini oshirish yoki pasaytirish, shuningdek, sof foydani taqsimlash to‘g‘risidagi qarorlar ijrosi auditorlik tekshiruvlari yakunida inobatga olinishi kerak.

Xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyatida noaniq vaziyatlarning mavjudligi auditor fikrini shakllantirishga jiddiy ta’sir etadi. Mazkur holatlarga baholangan va shartli majburiyatlarning mavjudligi kiradi. Shuningdek, hisobot davridan keyingi hodisalar ham faoliyat uzluksizligiga ta’sir etadi.

Moliyaviy hisobot auditi bo‘yicha auditor fikrini shakllantirishda buxgalteriya balansi moddalaridagi summalarning buxgalteriya hisobi schyotlaridagi yozuvlarga mosligini tekshirish lozim. Hisobot davri yakunida tranzit schyotlar yopilganligi, shuningdek, kontraktiv va kontrpassiv schyotlar qoldiqlari chegirilganligi auditor tomonidan tekshirilishi kerak. Auditorlik tekshiruvlarida debitorlik va kreditorlik qarzlari alohida tekshirilishi zarur. Mazkur turdagi qarzdorliklar tekshirilganda, ularning muddatiga ham e’tibor qaratilishi darkor. Muddati o‘tgan qarzlarning mavjudligi moliyaviy barqarorlik va faoliyat uzluksizligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

1 O‘zbekiston Respublikasining “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni.




1-rasm: Auditorlik xulosasi va hisobotini tuzishda tekshirilishi lozim bo'lgan jihatlar




2-rasm: Qurilish-pudrat tashkilotlarida faoliyat uzluksizligini baholash algoritmi[2]

2 Muallif ishlanmasi.

Auditning yakuniy bosqichida faoliyat uzluksizligi to‘g‘risida umumiy xulosani shakllantirish maqsadida tahliliy amallar qo‘llaniladi. Ushbu xulosalar moliyaviy hisobotning ishonchliligi to‘g‘risida fikrni shakllantirishga yordam beradi va audit yo‘nalishini aniqlashga xizmat qiladi.

Auditorlik tekshiruvlari yakunida auditorlar tomonidan tuzilgan ishchi hujjatlar umumlashtiriladi va tekshiruv natijalariga baho berilib, auditorlik xulosasi rasmiylashtiriladi.

Qurilish-pudrat tashkilotlari faoliyati firibgarlik holatlariga moyil bo‘lganligi sababli faoliyat uzluksizligini baholashga alohida e’tibor qaratish talab etiladi. Tadqiqotlar natijasida faoliyat uzluksizligini baholash algoritmi ishlab chiqildi.

Qurilish-pudrat tashkilotlari moliyaviy hisoboti auditida faoliyat uzluksizligini baholash algoritmining qo‘llanilishi mijoz korxona faoliyatiga to‘g‘ri baho berish va haqqoniy auditorlik xulosasini rasmiylashtirishga xizmat qiladi.

## XULOSA

Auditorlik tekshiruvlarida ishonchli auditorlik fikrini shakllantirish moliyaviy hisobot auditini puxta va to‘g‘ri rejalashtirishga bevosita bog‘liq.

Har qanday auditorlik tekshiruvida faoliyat uzluksizligini baholash talab etiladi. Faoliyat uzluksizligi juda ko‘plab omillarga bog‘liq bo‘lib, auditor tomonidan tekshiruv davomida mazkur omillarga chuqur e’tibor qaratish talab etiladi. Tadqiqotlar natijasida qurilish-pudrat tashkilotlarida faoliyat uzluksizligini baholash algoritmi ishlab chiqildi. Mazkur algoritmning to‘g‘ri qo‘llanilishi faoliyat uzluksizligini to‘g‘ri baholash imkoniyatini yaratadi.

Baholangan qiymat xo‘jalik yurituvchi subyektlarda bahosi aniq bo‘lmagan aktivlar va majburiyatlarga nisbatan belgilanadi. Mazkur qiymatni belgilash ham obyektiv, ham subyektiv bo‘lishi mumkin. Har qanday holatda ham mazkur qiymat ishonchli va asosli tarzda belgilanishi shart. Tadqiqotlar natijasida qurilish-pudrat tashkilotlarida baholangan qiymatlarning to‘g‘ri belgilanganligini aniqlash algoritmi taklif etildi. Mazkur taklif baholangan qiymatlar bo‘yicha obyektiv fikr shakllanishiga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**


1. “Hisob siyosati va moliyaviy hisobot” nomli 1-son BHMS. www.lex.uz
2. Ni Nyoman Alit Triani, Made Dudy Satyawan, Merlyana Dwinda Yanthi. Determining The Effectiveness of Going Concern Audit Opinion by ISA 570. //Asian Journal of Accounting Research, 2 (2017). Pages 29-35.
3. Adela Socol. Significant doubt about the going concern assumption in audit. //Annales Universitatis Apulensis Series Oeconomica, 12(1), 2010. Pages 291-299.
4. D.Anggarini, Z.Zulfikar. Factors Affecting Audit Opinion Going Concern. //Advances in Economics, Business and Management Research, volume 218, 2022. Pages 8-14.
5. Ochilov F.Sh. Majburiyatlar hisobi va auditini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent: 2021-y. 56 b.
6. Avlokulov A.Z. Moliyaviy natijalar hisobi va auditi metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent: 2019-y. 72 b.
7. Sayfutdinov B.N. Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy hisobotni tuzish va auditini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent: 2023-y. 56 b.




TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 5**

© Materiallar ko'chirib bosilganda ""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.